



O'QUV KURLARI TIL O'RGANUVCHILARIDA KOMMUNIKATIV  
KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHGA DOIR INTENSIV O'QITISHNING  
AMALIY ASOSLARI

G.R.Tolibova

*UzDJTU katta o'qituvchi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada o'quv kurslari sharoitida til o'rganuvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan intensiv o'qitishning amaliy asoslari tahlil qilinadi. Intensiv o'qitish jarayonida kommunikativ yondashuv, interaktiv metodlar va CEFR talablari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarning samaradorligi yoritiladi. Shuningdek, o'quv kurslarida tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi amaliy mexanizmlar tavsiflanadi.*

**Kalit so'zlar:** *kommunikativ kompetensiya, intensiv o'qitish, o'quv kurslari, CEFR, kommunikativ yondashuv, til o'rganish.*

Bugungi globallashuv sharoitida chet tillarini egallash jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xususan, qisqa muddat ichida samarali natijaga erishishni ko'zlagan o'quv kurslari til o'rganuvchilar orasida tobora ommalashib bormoqda. Bunday kurslarning asosiy vazifasi nafaqat lingvistik bilimlarni shakllantirish, balki til o'rganuvchilarning real kommunikativ vaziyatlarda chet tilidan erkin foydalana olish kompetensiyasini rivojlantirishdan iborat.

Kommunikativ kompetensiya tushunchasi ilk bor D.Hymes tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, u til birliklarini bilish bilan bir qatorda ulardan ijtimoiy vaziyatlarga mos ravishda foydalana olish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi<sup>75</sup>. Zamonaviy til ta'limida aynan kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish asosiy maqsad sifatida qaralmoqda.

Intensiv o'qitishning mazmun-mohiyati Intensiv o'qitishning mazmun-mohiyati – chet tilini qisqa muddat ichida yuqori samaradorlik bilan o'rgatishga qaratilgan ta'lim shakli hisoblanadi. Mazkur yondashuv o'quv vaqtining ko'paytirilishi, kommunikativ mashqlar ulushining orttirilishi va o'rganuvchilarning til muhitiga maksimal darajada jalb qilinishi bilan tavsiflanadi.

O'quv kurslari amaliyotida intensiv o'qitish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- kommunikativ faoliyatning ustuvorligi;
- til materialining funksional tanlanishi;
- o'quvchi markazli yondashuv;
- muntazam nutqiy amaliyot;
- real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish.

<sup>75</sup> Hymes D. On Communicative Competence // Pride J., Holmes J. Sociolinguistics. – Harmondsworth: Penguin Books, 1972. – B. 269–293.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Mazkur tamoyillar o'rganuvchilarning tilni nazariy emas, balki amaliy faoliyat vositasi sifatida o'zlashtirishiga xizmat qiladi. O'quv kurslarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishnin amaliy mezonlari ta'lim jarayonida turli interaktiv metodlardan foydalaniladi. Xususan, juftlik va guruh ishlari, rolli o'yinlari, muammoli vaziyatlarni hal etish, munozaralar va loyiha ishlari til o'rganuvchilarning nutqiy faolligini oshiradi.

O'quv kurslarida darslarning CEFR mezonlariga muvofiq tashkil etilgan topshiriqlar til o'rganuvchilarning kommunikativ ehtiyojlarini hisobga olish imkonini beradi. Masalan, A2 darajasida kundalik muloqot vaziyatlariga oid dialoglar, B1 darajasida fikr bildirish va munozara yuritish, B2 darajasida esa murakkab kommunikativ vazifalarni bajarish talab etiladi<sup>76</sup>.

Intensiv kurslarda quyidagi amaliy faoliyat turlari samarali natija beradi:

- information gap activities;
- role-play;
- case-study;
- presentation va discussion;
- problem-solving tasks.

Yuqorida ko'rsatilganlar til o'rganuvchilarning grammatik bilimlarini amaliy nutq jarayonida qo'llashiga imkon yaratadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar intensiv til o'qitish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, onlayn platformalar, mobil ilovalar va sun'iy intellekt asosidagi vositalar o'rganuvchilarga individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish imkonini beradi.

Bugungi kunda Quizlet, Kahoot, Duolingo kabi platformalar hamda sun'iy intellekt yordamida ishlovchi chatbotlar kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning samarali vositalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ular tinglab tushunish, gapirish va yozish ko'nikmalarini mustaqil ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'quv kurslarida intensiv o'qitishni kommunikativ yondashuv asosida tashkil etish til o'rganuvchilarning kommunikativ kompetensiyasini samarali rivojlantirish imkonini beradi. Interaktiv metodlar, CEFR mezonlari va zamonaviy raqamli texnologiyalarning uyg'un qo'llanilishi til o'rganuvchilarning nutqiy faolligini oshiradi hamda real kommunikativ vaziyatlarda chet tilidan foydalanish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu bois, intensiv til kurslari faoliyatini tashkil etishda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik tizimni takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

---

<sup>76</sup> Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Companion Volume. – Strasbourg, 2020.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bekmuratova U.B. Ingliz tilini kommunikativ yondashuv asosida o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2018.
2. Canale M., Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing // Applied Linguistics. – 1980. – Vol.1(1). – P.1–47.
3. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Companion Volume. – Strasbourg, 2020.
4. Hymes D. On Communicative Competence // Pride J., Holmes J. Sociolinguistics. – Harmondsworth: Penguin Books, 1972. – B. 269–293.
5. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.
6. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014.

